

INTERNETNING BOLA TARBIYASIGA TA'SIRI

Gulbahor Yuldasheva

FarDU, Axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti

Mohidil Dovranova

FarDU, Sotsiologiya yo'nalishi II kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar ma'naviy hayotida ijtimoiy tarmoqlarning o'rni, dunyoda amalga oshayotgan globallashuv jarayonlari yoshlarning ta'lim va tarbiya sohasiga ham o'zining ta'siri, ko'lami kengayib borayotgan internet tarmoqlari insonlarning imkoniyatlarini yaratayotgani va uning oqibatlari to'g'risida, bolalar tarbiyasidagi o'zgarishlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: yoshlar, ijtimoiy tarmoq, o'yin, internet.

Kirish

Axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan, G'arbga xos bo'lgan ommaviy madaniyat tez kirib kelayotgan hozirgi sharoitda milliy mentalitetimiz va ma'naviy xususiyatlarimizni asrash, mustahkamlash va boyitish alohida dolzarblikni kasb etmoqda.

Hozirgi dunyoda amalga oshayotgan globallashuv jarayonlari yoshlarning ta'lim va tarbiya sohasiga ham o'zining ta'sirini ko'rsatmoqda. Ko'lami kengayib borayotgan internet tarmoqlari insonlarning imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Barcha soha singari ta'lim sohasida xam bir qancha imkoniyatlarni ochib bermoqda. Dars mashg'ulotlarini tashkil qilishda ko'rgazmali materiallar tayyorlashda yoki zaruriy manbalarni tez va oson topishda yordami katta. Ayniqsa yoshlarga uy vazifalarni, darsdan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlarni bajarishda, mustaqil bo'sh vaqtlarida turli dasturlardan to'g'ri foydalanib, yangi bilimlar olishda ham qo'l keladi. Shu o'rinda yangi avlod darsliklarini kodlar orqali tarmoqlarga joylashtirilishi yoshlarni internet tarmoqlari bilan ishlashga jalb qilishini yo'lga qo'ymoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kun sari kattalar va yoshlar orasida ommalashib borayotgan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ko'lami ortib borib, ayniqsa yoshlarning asosiy kundalik mashg'ulotiga aylanib borayotgani barchamizga ma'lum. Muloqot qilish va axborot almashishda o'zining ko'pgina qulayliklariga ega bo'lgan turli ijtimoiy tarmoqlar va internet orqali ishlaydigan mahsus dasturlardan foydalanuvchilar soni kundan kunga oshib borishi quvonarli hol albatta, masalan, hozirgi kunda "Facebook", "Tik-tok", "Twitter", "Instagram", "Mail.ru" ijtimoiy tarmoqlardan, "Telegram", "WhatsApp", "Viber", "ChatON", "WeChat" kabi mobil dasturlardan mamlakatimizdagi ta'lim dargohlarida har bir fan, har bir soha uchun kerakli bo'lgan eng yangi va zarur ma'lumotlardan samarali foydalanish har birimiz uchun dolzarb vazifa hisoblanadi, lekin shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda internet, ijtimoiy tarmoqlar va mobil dasturlar g'arazli geosiyosiy maqsadlarni ko'zlagan turli-tuman kuchlarning eng samarali hamda ashaddiy quroliga aylanib ulgurdi [1].



TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Mamlakatimiz aholisining aksariyat qismini yoshlar tashkil etadi, internet tarmoqlari ma'naviy tahdidlarining asosiy nishoni ham ko'p hollarda aynan yoshlar ya'ni o'rta maktab o'quvchilar, o'rta maxsus va oliy ta'lim talabalari bo'lib qolmoqda. Internet mafkuraviy "jang" ning asosiy maydoniga aylandi, bu maydonda istalgan ma'lumotni istalgan ko'rinishini topish muammo emas, internet tarmoqlari aynan shunisi bilan xavflidir.

O'quvchi va talaba yoshlarning deyarli ko'pchiligi ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlarni badiiy adabiyotlardan ustun qo'yayotgani, natijada o'quvchilarning kitoblarni tark etishayotgani, bu orqali yoshlarimizning bilim saviyasi pastlab borayotganligi ham achchiq haqiqatdir. Bu esa bizning kelajagimiz mafkuraviy hurujlardan to'la himoyalanganligidan ogohlantiradi. Ularga qisqa, bachkana videolar orqali ta'sir qilishning yana bir xavfi bolada xotira pasayishi, sabrsizlik, materillarni uzoq muddat taxlil qila olmaslik, jizzakilik, asabiylilik xolatlarini sodir bo'lishiga olib kelmoqda. Shuning uchun inson ongini turli kuchlar egallashga intilishi kuchayayotgan bugungi kunda yosh avlodni ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy axborotlar ta'siridan asrab avaylash g'oyat muhim vazifadir [2].



Internet tarmoqlaridagi axloqsizlikni targ'ib etuvchi turli saytlar, jangari filmlar, yoshlarni kompyuter oldiga mixlab qo'yayotgan virtual o'yinlar ana shunday tahdidlarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu o'yinlardan nima foyda oladi degan savol tug'ilishi tabiiy albatta, birgina asosli javob shuki qimmatli vaqtini bekorga sarflaydi, fikrlash va ko'rish qobiliyatini susaytiradi. Ko'p o'yinlarda pul yig'ish, ya'ni virtual tarzda pul yig'ish tashkil etilgan, bu esa psixologik ta'sir xisoblanib faqatgina yoshlar emas hozirgi kunda katta yoshdagi, ota-ona darajasiga yetgan insonlar ham bu o'yinlarga berilib ketishi natijasida ko'plab ma'naviy tanazzulga sabab bo'layotganini aytishimiz mumkin. Virtual o'yinlar ichida eng ommalashgan GTA hamda "Flesh off duty" juda ham katta murakkab bosqichlar qo'yilgan bo'lib, yoshlar bu bosqichlardan o'tish uchun mukkasidan ketib bazan uch – to'rt kunlab kompyuter vositasi oldida o'tirmoqda, ularni ota-onasidan so'ralgan vaqtda o'g'lim shunchaki o'yin o'ynamoqda, kompyuter vositasi bilan ishlashni o'rganmoqda deb e'tibor bermabmiz deyishadi. Yevropa davlatlaridan kirib kelayotgan har qanday kompyuter o'yinlarida eng kamida bir marotaba bo'lsada zo'ravonlik, fahsh yoki shafqatsizlik aks etgan holatlarini kuzatishimiz mumkin, afsuski bu o'yinlar yoshlarimiz tomonidan muntazam o'ynab kelinmoqda. Bu holatlar albatta yoshlarimizni ma'naviyatini va tarbiyasini buzilishiga sabab bo'ladi.



Tabiiyki, kompyuter o‘yinlarining barchasi ham salbiymi-?, internetda mavjud bo‘lgan o‘yinlarni ichida inson ongiga ijobiy ta‘sir qiluvchi turlari ham bormi? - degan savol tug‘iladi. Albatta inson miyasiga ijobiy ta‘sir qiladigan o‘yinlar ham mavjud, bu nafaqat yoshlar, balki kattalar orasida ham ishdan charchagan vaqtda o‘yindan qandaydir zavq olish maqsadida shaxmat, shashka, futbol, tennis kabi miyaga dam beradigan sport o‘yinlarini ham virtual tarzda o‘ynash mumkin, bulardan tashqari “o‘zbek-ingliz-rus- koreys” tillarini o‘rgatadigan o‘yinlar ham mavjud. Ushbu o‘yinlardan madaniy hordiq olish



maqsadida yoki chet tillarini mukammal o‘rganish uchun foydalanish maqsadga muvofiqdir. Har bir narsada o‘zining me‘yori bo‘lgan kabi, yaxshi o‘yin bo‘ladimi yoki yomon o‘yin bo‘ladimi agar me‘yoridan ortiq o‘ynalsa, insonning miya faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, immunitetini susayishiga ya‘ni yoshlarni kattalardek yoki kattalarni yosh bolalardek fikrlash doirasiga olib kelishi mumkin. Kompyuter o‘yinlarni soatlab o‘ynash, ularga mukkasidan ketish aslo yaramaydi. O‘yinlardan zavqlangan bola uchun bunday “sevimli” mashg‘ulotidan bo‘lak hamma narsa asta-sekin ahamiyatsiz bo‘lib qoladi. Kattalarga qaraganda yoshlarning biror narsaga bog‘lanib qolishi kuchli, ularning sog‘ligiga yetadigan zarar ham bir necha barobar ko‘pdir. O‘zi boshqarayotgan virtual o‘yinni hamma narsalardan afzal ko‘rishi kuchayib boradi, natijada bolada fikrlash qobiliyati susayadi, o‘qishga, ilm olishga bo‘lgan qiziqishi so‘nib boradi [3].

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, globallashuv jarayonlari yoshlarning ta‘lim va tarbiya sohasiga ham o‘zining ta‘sirini ko‘rsatayotgan, ko‘lami kengayib borayotgan internet tarmoqlari insonlarning imkoniyatlarini kengaytirish bilan bir qatorda salbiy oqibatlariga xam olib kelmoqda ekan, befarq bo‘lmaylik. Jamiyatdagi mavjud muammolar, yechimi topilmayotgan masalalarni hal etish faqatgina muayyan soha hodimlarinigina vazifasi bo‘lmay, balki har birimizning fuqaro sifatida ma‘naviy-ahloqiy burchimizga aylanmog‘i darkor.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gwenn Schurgin O’Keeffe, Ketlin M. Klarkning klinik hisoboti - ijtimoiy medianing bolalar, o‘smirlar va oilalarga ta‘siri // PEDIATRICS 2021 yil, 127 (4): 800-4



2. Milliy istiqloq g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyillar. T. "O'zbekiston".2020 y.
3. Yuldasheva, G., & qizi Oxunjonova, Z. A. (2023). Ta'lim va tarbiya jarayonlarida axborot texnologiyalarining o'rni. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(3 SPECIAL), 984-986.
4. Yuldasheva, G. (2023). Ta'lim jarayonida ijtimoiy tarmoqlarning tutgan o'rni. *Golden brain*, 1(30), 144-147.
5. Yuldasheva, G., & Yo'ldosheva, M. (2023). Axborotlashuv va yoshlar tarbiyasi. *Scholar*, 1(32), 205-209.
6. Yuldasheva, G. I. (2022). Ta'lim samaradorligini oshirishda elektron darsliklardan foydalanish. *Youth, Science, Education: Topical Issues, Achievements And Innovations*,(5), 36-38.
7. G.I.Yuldasheva., M.Otamirzayeva (2023). Ta'lim muhitida axborot texnologiyalarining o'rni. *Международный научный журнал «Научный импульс»*. № 10(100), 118-121.
8. www.wearesocial.com
9. www.review.uz

